

## SAHNADA ZAMON QAHRAMONI

**Pirmatov Sherzod Tursunovich** – professor

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, “Vokal” kafedrası*

**Tayanch so‘zlar:** aktyor, an‘ana, ohang, rejisyor, ijodkor, ijro, maktab, zamon qahramoni.

**Ключевые слова:** актёр, традиция, мелодия, режиссёр, творец, исполнение, школа, герой нашего времени.

**Key words:** actor, tradition, melody, director, creator, performance, school, hero of our time.

O‘zbek teatrshunosligining buyuk namoyandaligidan biri, marhum ustozimiz, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Toshpo‘lat Tursunov esa o‘zining 1978 yili yozgan “Zamon, zamondosh, obraz va sahna” maqolasida “...Zamon bilan birga uning yaratuvchisi – zamondoshimiz o‘zgarib ketdi. U bundan o‘n yil, besh yil oldingi odam emas. Hayot va mehnat tarzi kun sayin boshqa izga ko‘chayapti...” [3.48] degan fikrlarni keng jamoatchilikka havola etgan edi.

Yuqorida keltirilgan iqtiboslardan ko‘rinib turibdiki zamonaviy qahramonning to‘laqonli obrazini yaratish har doim adabiyot, teatr va kino, boringki san‘atning barcha turlari oldiga qo‘yilgan eng dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Hayot doimo o‘zgarishda, qahramonlik hamisha yangilanib turadi va har bir davr o‘z qahramonini yaratadi. Darhaqiqat, insoniyat tobora rivojlanib, takomil topib bormoqda. Ayniqsa, buyuk bobolarimizning azaliy orzusi va armoni bo‘lgan, nihoyat bugun bizning zamondoshimiz qo‘lga kiritgan Mustaqillik kishilarimizni ulkan marralarga chorlamoqda. Bugungi kun kishisi shu qadar shiddat bilan o‘tib, kamol topmoqdaki, endi zamonaviy qahramon mezonlari ham tobora zalvorli bo‘lib bormoqda. Shu o‘rinda yana bir qator savollar tug‘iladi: “Zamon qahramoni nuqsonsiz bo‘lishi shartmi? Oddiy inson ham qahramon bo‘la oladimi? Bosh qahramon ideal shaxs bo‘lishi kerakmi?” Bu savolga U.Normatov: “Ijobiy qahramon hech qanday andozani, retseptni tan olmaydi. Qahramon yaratishning usullari, yo‘llari beaded, bu borada hali kashf etilmagan imkoniyatlar behisob. Ijtimoiy qahramon g‘oyat xilma-xil bo‘laverishi mumkin, faqat birgina talabga javob bersa bas-u har qancha xilma-xil bo‘lsa ham, hammadan burun davr tipi bo‘lsin, davrning yetakchi, ilg‘or kuchlari mohiyatini o‘zida yorqin, betakror mujassam etsin”, - deb yozgan edi. [1.45] Yoki san‘atshunoslik fanlari doktori Sarvinoz Qodirovaning fikrlariga nazar tashlaylik. “Zamonaviylik asarning mazmuniga aylanishi kerak, - deydi olima. – Zamonaviy mavzudagi asar deganimizda, nafaqat hozirgi hayotimiz

haqida hikoya qiluvchi, balki uning muammolari, ziddiyatlarini haqqoniy ochib beruvchi asar tushuniladi, toki u yosh avlodni tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shsin”. [2.11-13]

Hozirgi kunda respublikamizda 37 teatr faoliyat yuritib kelmoqda. 2020-2025 yillar mavsumini oladigan bo‘lsak, teatrlarimizda turli janr, uslub va shakllarda sahnalashtirilgan 150 ga yaqin sahna asarlari tomoshabinlar e‘tiboriga havola etildi. Spektakllarning saviyasi, badiiylik mezonlari turli darajada. Teatrlarimiz repertuarlarini kuzatsak, farzand tarbiyasi, narkomaniya va OITS, terrorizm va diniy ekstremizm, odam savdosi kabi bir qator dolzarb mavzulardagi asarlar soni yetarli darajada ekanining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Ayni kunlarda dramatik asarlar uchun keng qamrovli materiallar, mavzular istagancha topiladi. Agar bunday spektakllar yuksak saviyada sahnalashtirilsa, aktyorlar ijrosida voqea bo‘larli topilmalar qanchalik ko‘p bo‘lsa tomoshabin uchun shunchalik dilga yaqin va qadrli bo‘ladi. O‘z zamondoshlarining to‘laqonli obrazlarini yaratish esa har bir aktyorning eng yuksak orzularidan biri ekaniga shubha yo‘q.

Zamonaviy mavzulardagi asarlar tomoshabinlarni doimo o‘ziga jalb qiladi. Chunki har bir inson o‘z zamonasining dolzarb muammolari, zamondoshlari hayoti, faoliyati, orzu-umidlari aks etgan spektakllarda qisman o‘zlarini ko‘radilar, ularning intilishlarini tushunishlari osonroq kechadi. Shu sababli hozirgi kunimizning yutuqlari, kamchiliklari, ziddiyatlari bor bo‘yi bilan ko‘rsatib berilgan sahna asarlarida tomosha zallari doimo to‘liq bo‘layotgani quvonarli holdir.

Teatrlarimizni kuzatib, tahlil etilishi natijasida uning repertuarlarini ana shunday zamonimiz kishilariga ma‘naviy ozuqa beruvchi xilma-xil mavzulardagi asarlar bezab turganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Ular ichida qay bir mavzu muhim, degan savollar ham bo‘lib turibdi. Albatta, har bir janr, uslub va mavzularni inkor etishga sabab yo‘q. Aksincha, ularning har biri o‘z tomoshabini, muxlisiga ega. Mustaqillik yillarida biz mutlaqo yangicha tuzumga qadam qo‘ydik.

O'zligimizni anglashimiz, istiqloqlning tom ma'nosini tushunib yetishimiz, o'z yo'limizni belgilab olishimiz oson kechmadi. Asrlar osha insonlar ongiga eng ezgu hislarni singdirishda teatr san'ati doimo yetakchi kuch, kuchli qurol bo'lib kelgan. Istiqloqlning ilk yillaridan boshlab davlatimizda bu ishga siyosatning bir bo'lagi sifatida qaralib kelinayotgani ham shundan. Milliy mafkurani shakllantirish, insonlar qalbiga ozodlik va hurlikning nashidasini singdirish uchun har bir fuqaro yuragida avvalo vatanparvarlik tuyg'usi bo'lishi, shu bilan birga yurt ravnaqi uchun tom ma'nodagi – ham tashqi jihatdan jismonan barkamol, sog'lom bo'lgan, ham ichki olami go'zal, yuksak bilim va tajribaga ega ziyoli insonlarning zarurligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

O'zbek Milliy akademik drama teatri bir necha o'n yilliklar davomida xalqning sevimli, yetakchi san'at dargohi va ma'naviyat ulashuvchi universitet sifatida o'zining alohida mavqeiga ega. Vatanparvarlik, fidoyilik, insonlarga ziyo tarqatish ideallari tashkil bo'lgan ilk davrlaridanoq ushbu dargohning yetakchi mavzularidan sanaladi. Bir asrlik tarixga ega bo'lgan san'at dargohining bugungi kun repertuarini bezab turgan spektakllarida ham vatani ishqida yonuvchi, insonlar manfaatini o'zirikidan ustun sanovchi, qalbi nur va ziyoga yo'g'rilgan **zamondosh qahramon**larning yorqin obrazlari mavjud. Ularning badiiylik va barkamollik darajalari esa turli darajada. Bunday izlanishlarda O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minovning Jo'ra, aktrisa Shodiya To'xtayevaning Shabnam obrazlarini teatrning zamondosh qahramonning to'laqonli qiyofasini yaratish yo'lidagi yutuqlari deyish o'rinli. Shuningdek O'zbek Davlat drama teatrining "Ezgulik yo'li", "Muvozanat" spektakllaridagi Hoshim Arslonov gavdalandirgan Hokim va Yusuf, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatrining "Garovdagi muhabbat" musiqali dramasiidagi Habibullo Ortiqov va Gulnoza Alimovalarning Samandar va Ona, Namangan viloyat musiqali drama teatrining "Bahor shamoli" dramasiidagi Nuriddin Ismoilov va Ravshanoy Rajabboyevalar yaratgan Sodiq va Shohista obrazlari ham o'zining badiiy saviyasi, ayniqsa aktyorlik ijrolari tufayli tezda jamoatchilik e'tiborini tortdi. Ish, izlanish bor joyda kamchiliklar ham bo'lishi tabiiy. Lekin ba'zi juz'iy kamchiliklarga qaramay bo'y ko'rsatayotgan natijalar, yutuqlar olib borilayotgan izlanishlarning besamar ketmayotganini ko'rsatib, ular tomoshabinlarga ma'naviy ozuqa beruvchi, namuna bo'la olarli zamondoshlarimizning bundan-da to'laqonli

obrazlari yaratilishiga zamin bo'lishiga ishonch uyg'otadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida: "Ayni paytda teatr san'atimizda ham bugungi hayotimizni, zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan, tomoshabinni o'ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtai nazaridan badiiy yuksak asarlar, afsuski, kam ekanini tan olishimiz lozim. Aksincha, real haqiqatdan yiroq, odamga katta ma'naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to'ldirish holatlari ko'proq ko'zga tashlanmoqda.

Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug'orilgan asarlar yaratish - barcha san'at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo'lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste'dodli dramaturg va rejissyorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi",- deydi. [3.144] Ha, shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda teatrlarimizda zamonaviy qahramon yaratish uchun barcha shart - sharoit yetarli. Lekin nima uchun biz oxirgi yillarda mutaxassislarimiz ta'kidlaganidek mard, jasur, fidoyi ayni paytda oddiy insonlarning to'laqonli, realistik obrazlarini sahnada istaganimizdan ko'ra kamroq ko'ryapmiz, degan savol hammani birdek o'ylantiryapti. Shu o'rinda aytish kerakki, teatr jamoalarining barchasida zamonaviy qahramon yaratish yo'lidagi izlanishlari davom etmoqda. Bu yo'lda turli eksperimentlar ham qilindi. Lekin, nega bu izlanishlar o'zining yetarli samarasini bermayapti? Nazarimizda, biz istayotgan, teatrlarimiz izlayotgan zamonamiz qahramonlari avvalombor professional dramaturgiyamizda kam ko'rinyapti.

Teatrning professional dramaturgiyasiz yashay olmasligi oddiy haqiqat. Aytish kerakki, oxirgi yillar repertuarlarimizni kuzatsak, ularda yetuk yozuvchilarimiz, tajribali adiblarimiz nomlarini kam ko'ryapmiz. Bu borada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston Yoshlari teatrining badiiy rahbari N.Abdurahmonovning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinli. "Albatta, sahnamiz uchun yetuk zamondoshlarimiz qiyofasi zarur. Lekin bu ishga duch kelgan odam qo'l urib, o'rtamiyona asarlar ko'payishi xavfi borligini unutmasligimiz zarur. Yaxshi, baquvvat asarlar professional ijodkorlar hamkorligida yuzaga keladi. Demak, birinchi navbatda, yuksak malakali kadrlar, aktyorlar, dramaturglar

yetishtirish ishiga jiddiy e'tibor qaratish zarur". [4.1-5] Darhaqiqat, rejissyor fikrlari o'rinli. Zamondoshlarimizning to'laqonli obrazlarining dunyoga kelishida malakali aktyorlarni tarbiyalash asosiy, ta'kidlash joizki, eng muhim talablardan biridir. Shu sababli teatrlarimizga kadr tayyorlab beruvchi O'zbekiston Davlat san'at instituti bilimlil, fikr doirasi keng, tafakkuri baland, iqtidorli va sahnada mehnat qilishni o'zining sharafli burchi deb biluvchi fidoyi mutaxassislarini tarbiyalash ishiga bugungidan ham katta e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, malakali aktyor tarbiyalash ishida teatrlarning ham roli muhim. Aktyorlikni bitirgan yosh mutahassisni o'tadigan faoliyatlari jarayonida ularga imkoniyatlar eshigini ochib berish, ustoz aktyorlarga birlashtirish masalalari haqida ham bosh qotirish vaqti yetdi. Chunki, yosh mutahassisning to'rt yil davomida institut o'quv ustaxonalarida olgan bilimining o'zi uning malakali san'atkor darajasiga yetishiga kamlik qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda teatrlarimizda voqea bo'larli zalvorli ishlar, zamondoshlarimizning yorqin qiyofalarini aks ettirgan, ularning orzu-umidlari, intilishlari, yutuq va kamchiliklarini bor bo'yi bilan ko'rsatib beradigan spektakllar yaratildi va yaratilmoqda. Ana shunday qahramonlarning sahnalarimizda yanada ko'payishi uchun aktyorlarimizdan bir vaqtlar talab qilingan qat'iy intizom, yuksak

madaniyat va badiiy saviyani shakllantirish ham muhim omillardan biridir. Ko'pgina davlatlarda teatr san'ati o'zining o'rnini san'atning boshqa turlariga bo'shatib berayotgani, teatrlar soni tobora kamayib borayotgani, bosh vazifasi yuksak g'oyalar tarqatish bo'lgan bu san'at turi shou-biznes tomon og'ib borayotgan bir davrda O'zbekistonda mavjud bo'lgan barcha teatrlarning birortasi ham o'z ijodini to'xtatmay faoliyat yuritib kelayotgani kishini quvontiradi. Buning asosiy sabablarida biri hukumatimizning sohaga e'tibori va qo'llab-quvvatlayotganidir.

Ayni kunlarda har birimiz teatrlarimizdan zamonaviy mavzulardagi, yetuk zamonaviy qahramonlar aks etgan asarlarni kutishga haqlimiz. Lekin bu muammo faqat teatrniki emas, balki butun jamoatchilikniki. Shunday ekan, dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom, bastakor, teatrshunos, san'at oliygohlari pedagoglari va teatr adabiy emakdoshlari, san'atga rahbar tashkilotlarning har biri o'z faoliyati bilan bu muammoning yechimiga o'z hissasini qo'shmog'i zarur. Buning uchun soha vakillarining barchasi birlashib, bir-biriga beg'araz yordam berishi, masalaning qanchalar dolzarb ekanini qalbdan his etishi maqsadga muvofiq. Ana shundagina teatrlarimiz sahnalarida fidoyi, vatanparvar, insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etgan, kasbi va burchiga sadoqatli zamonaviy qahramonlarning badiiy barkamol obrazlari ko'payaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. "Go'zallik olami" Toshkent 1974y. 45 - bet.
2. Qodirova S. "Zamonaviy mavzu va janr muammosi" // J. Teatr.-2004.-№2. 11-13-betlar.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.:Ma'naviyat, 2008. 144 - bet.
4. Umarova G. Sahnada zamonaviy qahramon obrazi //Gaz.O'zbekiston adabiyoti va san'ati.- 2010. - №40.1-5 - betlar.
5. Ikromov H. Davr va teatr. – O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009.-239 b.
6. Rahmonov M.R. Hamza teatri. Birinchi kitob (1914-1960 yillar). - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.- 325 b.

**REZYUME.** Ushbu ilmiy maqolada zamon qahramoni kashf qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlarimiz va kelgusida amalga oshirish zarur bulgan muammolar xususida to'xtalib o'tiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье отмечается важность выявления героя нашего времени. Кроме того, рассматриваются достижения, достигнутые в этом направлении, и проблемы, которые необходимо решить в будущем.

**SUMMARY.** This scientific article emphasizes the importance of discovering the hero of our time. It also discusses the achievements made in this field and the challenges that need to be addressed in the future.